

MUDDATIDAN O'TIB TUG'ILGAN BOLALAR ONALARI KASALLANISH
HOLATINING GIGIYENIK JIHATLARI

HYGIENIC ASPECTS OF THE INCIDENCE OF MOTHERS OF CHILDREN BORN
PREMATURELY

ГИГИЕНИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ МАТЕРЕЙ
НЕДОНОШЕННЫХ ДЕТЕЙ

Nasirdinov M.Z. – PhD

<https://orcid.org/0009-0007-5957-9861>

Central Asian Medical University

Madaminova Z.A.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Nasirdinov M.Z., Madaminova Z.A. (2025). MUDDATIDAN O'TIB TUG'ILGAN BOLALAR ONALARI KASALLANISH HOLATINING GIGIYENIK JIHATLARI. В ActaCAMU (Т. 9, Выпуск 9, сс. 176–180). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15152109>

Annotatsiya. Tadqiqotda muddatidan o'tib tug'ilgan bolalarning onalari salomatlik holatini gigiyenik tahlil qilishdan iborat, nazorat ostiga olingan muddatida o'tib tug'ilgan bolalarining onalari salomatlik holati va kasallanishni profilaktik tibbiy ko'rik natijalari hamda murojaatlar bo'yicha kasalliklar tahlili Xalqaro kasalliklar tasnifi XKT-10 (1993) asosida amalga oshirildi. Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, kasalliklarning yillar kesimida tahlilidan farqli jihatdan quyidagi natijalar olingan, onalar orasida temir tanislik kamqonlik kasalligi birinchi o'rini egallangan bo'lib, 90(27,7%)ni tashkil qilgan bo'lsa, allergik kasalliklari 69(21,2%)ni, homiladorlik toksikozi 68(20,9%)ni, pielonefrit kasalligi 45(13,8%)ni, qandli diabet kasalligi 6,5%ni tashkil qilgan. Muddatida o'tib tug'ilgan bolalarining onalari orasida qayt qilingan kasalliklarni oldini borasida profilaktik ishlar, ya'ni kasallikni to'g'ri tashxislash, ularning sog'lom ovqatlanishi, jismoniy tarbiyalash, chiniqtirish bilan birgalikda tizimli davolash ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Kalit so'zlar: Muddat o'tib tug'ilgan bolalar onalari, kasallanish holati, oldini olish, davolash.

Annotation. The study consisted of hygienic analysis of the health status of mothers of children born after a period of time under control, analysis of the health status of mothers of children born after a period of time under control and the results of preventive medical examination of morbidity, as well as the analysis of diseases by reference International Classification of diseases. From the results obtained, the following results were obtained in different ways from the analysis of diseases in the cross-sectional years, with iron diagnosis among mothers taking the first place in anemia at 90(27.7%), allergic diseases at 69(21.2%), pregnancy toxicosis at 68(20.9%), pyelonephritis at 45(13.8%), diabetes mellitus at 6.5%. Among the mothers of their children who were born past the deadline, it is advisable to carry out preventive work on the Prevention of relapsed diseases, that is, systematic treatment in combination with the correct diagnosis of the disease, their healthy diet, physical education, conditioning.

Keywords: mothers of children born after a period of time, state of morbidity, prevention, treatment.

Аннотация. Исследование состояло из гигиенического анализа состояния здоровья матерей недоношенных детей, проведенного на основе результатов профилактического медицинского осмотра состояния здоровья и заболеваемости матерей недоношенных детей, находящихся под наблюдением, а также обращений, анализ заболеваний проводился на основе

Международной классификации болезней ИКТ-10 (1993). Из полученных результатов видно, что в отличие от анализа заболеваемости в разрезе лет были получены следующие результаты: среди матерей железодефицитная анемия занимала первое место и составляла 90 (27,7%), аллергические заболевания-69(21,2%), токсикоз беременности-68(20,9%), пиелонефрит-45(13,8%).), заболеваемость диабетом составила 6,5%. Целесообразно проводить профилактическую работу по профилактике рецидивирующих заболеваний среди матерей детей, родившихся в срок, то есть проводить системное лечение в сочетании с правильной диагностикой заболевания, их здоровым питанием, физической культурой, закаливанием.

Ключевые слова: матери детей, родившихся с истекшим сроком годности, заболеваемость, профилактика, лечение.

Mamlakatimizda tug‘ilayotgan bolalarning salomatlik holati, unga ta’sir qiluvchi omillari, ularning bartaraf etish va nazorat qilish bugungi kunda tibbiyot xodimlari, profilaktik tibbiyot sohasidagi mutaxassislar bilan birgalikda, tibbiyot genetiklari, akusher-genikolog, gematolog, endokrinolog va pediatrlar oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Fertil yoshdagi onaning salomatlik holati, homila va keyinchalik yangi tug‘ilgan chaqoloq salomatligini interal baholavchi belgilardan biridir. Yangi tug‘ilgan chaqoloqlar va ularning onalarining salomatlik holatini himoyalash va kasallanish darajasini kamaytirish dunyoning barcha rivojlangan davlatlari uchun ustuvor hisoblanadi [1, 2, 3, 7, 12, 15, 16].

Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish tibbiy tizimni jahon andozalari talablariga moslashtirish, jumladan, yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda uchraydigan patologik holatlarda to‘g‘ri maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni o‘tkazishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo‘nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasini yangi bosqichga ko‘tarishda birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash kabi vazifalar belgilangan [7].

Bugungi kunda mamlakatimizda aholining turli qatlamlari orasida ularning salomatlik holatini himoyalash borasida qator dasturlar amalga oshirilishiga qaramasdan, homiladorlar va ularning homilasining turli kasalliklar bilan kasallanish natijasida yuzaga keladigan kamqonlik, yod tanqislik holati, buyrak kasalliklari, nefropatiyalar, o‘shish va rivojlanishdan orqada qolish kabi holatlar bolalar va o‘smirlar orasida davriy ravishda qayt qilmoqda va bu borada qator ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda [1,2,3,4,5,6,7,10]. Bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri muddatida o‘tib tug‘ilgan bolalar salomatlik holatini mustahkamlash va gormonik rivojlanishini ta‘minlash bilan birgalikda bolalar va onalar o‘limini oldini olish va kasallanish asoratlarni kamaytirishdan iborat. Muddatidan o‘tib tug‘ilgan bolalarning salomatlik holati gestatsiya muddatlari, homila oldi suvidagi mekonianing mavjudligi, suvining kamligi, tug‘ruqni hal etish usullari va tug‘ruq jarayonidagi asoratlarga bog‘liqdir. Muddatidan o‘tib tug‘ilgan chaqaloqlarda kichik anomalialar (15,4%)ni ulardan, kindik halqasining churrasi – 3%, urug‘don qobig‘i istisqosi – 2,6%, gipospadiya – 2%, oyoq kafti deformatsiyasi – 2%, rivojlanishdagi nuqsonlar 3,1%ni tashkil qilishi bilan birgalikda ularning hayot sifatiga ta’siri qiluvchi oimllarning nisbatini baholash va oldini olish asosiy masallardan biridir [3,9,10,11]. Muddatida o‘tib tug‘ilgan bolalarning onalari salomatlik holatini yaxshilash turli kasalliklar asoratlarini oldini olish, homiladorlik toksikozlarning asoratlarini kamaytirish, buyrakdagi o‘zgarishlar va tos suyagi asortalarini oldini olish ularning davriy fiziologik jarayonlarni ta‘minlash borasida sog‘lom turmush tarzini amalga oshirish va uni monitoringini amalga oshirish bugungi kundagi tibbiyot xodimlari oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Tadqiqotning maqsadi: Muddatidan o‘tib tug‘ilgan bolalar onalari kasallanishi va uning bolalar salomatlik holatiga ta’sirini gigienik tahlil qilishdan iborat.

Material va usullar.

Nazorat ostiga olingan muddatida o‘tib tug‘ilgan bolalarning onalari salomatlik holati va turug‘xonaga kelgan holda ularning tug‘ruq xaritalari va unda qayt qilingan kasalliklarning tahlili va ushbu holatlarning bolalar salomatlik holatiga ta’sirini tug‘ruq davomidagi so‘rab surishtirish va

homiladorlik davridagi ro'yxatga olish va profilaktik tibbiy ko'rik natijalari asosida amalga oshirildi va olingan natijalar Xalqaro kasalliklar tasnifi XKT-10 (1993) [7] asosida tahlil amalga oshirildi. Biz tahlillarimizni 2016 va 2020 yillar davomida ro'yxatga olingan bolalarning onalarida qayt qilingan kasalliklarni tahlil qilish orqali amalga oshirdik. Olingan natijalarning statistik tahlili «Pentium-IV» protsessori asosidagi shaxsiy kompyuterning amaliy dasturiy paketi Excel yordamida an'anaviy variatsion statistika usullari yordamida o'tkazildi.

Natija va tahlillar

Oldimizga qo'yilgan maqsad va vazifalarning ilmiy asoslangan yechimini topish maqsadida, biz Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 2016 va 2020 yillar davomida muddatida o'tib tug'ilgan bolalarning onalari va bolalarning salomatlik holati, ya'ni kasallanish darajasini tahlil qilgan holda xulosa qilish va profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishga qaror qildik. Biz tadqiqotimiz davomida 2016-2021 yillarda Respublikamizda va Toshkent shahri va Toshkent viloyatida qayt qilingan tug'ilishlar ko'rsatkichini 1 jadvalda keltirdik.

1-jadval.

Hududlar bo'yicha yillar davomida tug'ilganlar chaqaloqlar soni, stat.uz.

Hudud	2016	2017	2018	2019	2020	2021
O'zbekiston Respublikasi	726170	715519	768520	814960	841817	905211
Toshkent shahri	43879	43150	45548	50285	54401	63034
Toshkent viloyati	57190	54794	59300	64086	65954	72659

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Respublikamizda tug'ilish ko'rsatkichi 2016 yilda 726 170 nafarni tashkil qilingan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichi 2020 yilda esa 905 211 nafarni tashkil qilib, 4 yilda 24%ga tug'ilish ko'rsatkichi oshganligi ko'rinib turibdi. Toshkent shahrida ushbu ko'rsatkichi 43,6%ga, Toshkent viloyatida esa ushbu ko'rsatkich 27,0%ga ortganligi keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdi. Bunda ko'rinib turibdiki, yil sayin nafaqat Toshkent shahri va Toshkent viloyatida balkim, respublikamizning barcha viloyatlarida aholini fertil yoshidagi aholisining soniga nisbatan, barcha hududlarda tug'ilish ko'rsatkichi kun sayin orib bormoqda. Eng asosiysi yiliga mamlakatimizda qarayib bir millionga yaqin, to'g'risi 900 mingda ortiq chaqaloqlar tug'ilmoqda. Bu yaxshi natija, ularning salomatlik holatini himoyalash bilan birgalikda onalar salomatlik holati himoyalash onalar va bolalar o'lim ko'rsatkichini kamaytirish nafaqat tibbiyot xodimlari, balkim barcha soha xodimlari oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Muddatidan o'tib tug'ilgan bolalarning onalarida uchraydigan turli kasalliklar, ya'ni kamqonlik yod yetishmovchilik holati va buyrakdagi nuqsonlari va ularning asoratlarini oldini olish, ularning salomatlik holatini fiziologik yoshga mos holatda ta'minlash bugungi kundagi dolzarb muammolar bilan birgalikda tibbiyot xodimlarning asosiy vazifalaridan biridir. Ushbu holatda aholining ko'payishi albatta insonlar umr ko'rish davomiyliligi va ularning salomatlik holatini yaxshilashga qaratilgan chora- tadbirlarning samaradorligini oshirishni taqozo qiladi. Muddatidan o'tib tug'ilgan bolalarning onalari kasallanish holatining natijalari 1-rasmda keltirilgan. 1-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib, turibdiki, onalar orasida eng ko'p tarqalgan kasalliklari 2016 yilda homiladorlik toksikozi 19 (27,9%) ni, temir tanqislik kamqonlik kasalligini 17 (25,0%) ni, allergik kasalliklar 14 (20,6%)ni, pielonefrit 12 (17,6%) ni, qandli diabet 3 (4,4%) ni tashkil qilgan bo'lsa, eng asosiy ko'p uchraydigan holat homiladorlik toksikozi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda homiladorlarda uchraydigan temir tanqislik kamqonlik kasalligi qayt qilingan va bu davriy uchraydigan kasalliklar qatoriga kiritilgan.

Temir tanqislik kamqonlik kasalligi keyinchalik homiladorlardan tug'iladigan bolalar va homilaning turli nuqsonlari bilan birgalikda muddatida o'tib tug'ilgan bolalarda aqliy va jismoniy rivojlanishining nuqsonlari yuzga kelishiga asos bo'ladi va turli nuqsonlarning rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Temir tanqislik kamqonlik kasalligi keyinchalik homiladorlardan tug'ildigan bolalar va homilaning turli nuqsonlari bilan birgalikda muddatida o'tib tug'ilgan bolalarda aqliy va jismoniy rivojlanishining nuqsonlari yuzga kelishiga asos bo'ladi va turli nuqsonlarning rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Tahlillarimizda natijasidagi ma'lumotlarda 2017 yilda boshqa holat ya'ni temir tanqislik kamqonlik kasalligi 19 (33,9%) ni, homiladorlik toksikozi 13 (23,2%) ni, pielonefrit 9 (16,1%)ni, allergik kasalliklari 6 (10,7%) ni, qandli diabet 5 (8,9%) ni tashkil qilgan. Qandli diabet kasalligi bilan xastalangan ayollar 8,9%ni tashkil qilish bu yuqori ko'rsatkichlardan biri bo'lib, bugungi kunda kun sayin ortib bormoqda. Biroq hududlar kesimida aniqlansa, bu holat bundan ham yuqori ko'rsatkichlarni qayt qilishi mumkin, biroq ular muddatdan o'tib tug'ilganlarga nisbatan ushbu nisbat aniqlangan. Aytishimiz joizki, ushbu onalardan tug'ilgan bolalarda qandli diabetning asoratlari qayt qilishini sir emas. 2018 yilda esa birinchi o'rnini kamqonlik kasalligi egallagan bo'lsa 25 (34,7%) ni, allergiya 22 (30,6%) ni, keyingi o'rinni homiladorlik toksikozi egallangan, undan keyingi o'rnini pielonefrit va qandli diabet kasalligi tashkil qilgan.

2018 yilda qayt qilingan kasalliklar orasida allergik kasalliklar ikkinchi o'rnini egallagan bo'lsada, oziq-ovqat va maishiy vositalar yordamida yuzaga keladigan allergik holatlar bilan birgalikda atrof-muhit omillarning ifloslanish natijasida yuzaga keladigan allergik kasalliklar darajasi keskin ortib borishi qayt qilingan, bu esa bolalar orasida yuzaga keladigan asoratlar nisbati oshishiga sharoit yaratadi. Bu borada qator profilaktik ishlarni amalga oshirish zarur. 2019 yilda eng ko'p qayt qilingan kasallik sifatida kamqonlik, allergiya va homiladorlik toksikozi, pielonefrit, preeklampsiya oshgan bo'lsa, 2020 yilda homiladorlik toksikozi, allergik holatlar, kamqonlik va preeklampsiya va qandli diabet oshganligini inobatga olishimiz kerak. 2020 yilda COVID-19 qayt qilinish va homiladorlikda turli asoratlar qayt qilinish umumiy hisobotga kiritilmaganligi yoki uning asoratlari oshganligini unutmasligimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda, olingan natijalarning gigiyenik tahlilidan ko'rinib turibdiki, onalar orasida qayt qilingan temir tanqislik kamqonlik kasalligi, homiladorlik toksikozi, allergik kasalliklari, pielonefrit, qandli diabet kasalligini oldini olish borasida qator profilaktik ishlarni davriy amalga oshirish va onalar orasida homiladorlik davrida oilaviy poliklinikalardagi ayollar maslahati xonalari davriy qatnovlarni amalga oshirish eng kamida yetti marta va onalardagi kasalliklarni to'g'ri tashxislash, ularning sog'lom ovqatlanish tartibi, kunlik jismoniy daqiqalarni davriy shakllantirish, chiniqtirish vositalaridan foydalanish, turli yuqumli kasalliklarni oldini olish qaratilgan tadbirlarni reja asosida amalga oshirish sharoitini yaratish bilan birgalikda tizimli davolash tartibini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulxakov I.U.idr. Endokrin tizimi kasalliklarining hududiy tartibi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-gigienik tahlili. 2022.
2. Abdulxakov I.U., Ermatov N.J. Glyukozaga tolerantlikning buzilishi bilan kasallangan bemorlarning kunlik ovqatlanish ratsionini nutriventiv tarkibini gigienik baxolash //Biologiya i integrativnaya meditsina. 2021;5(52):90-113
3. Azbukina L.N. Otdalennyye rezultaty fizicheskogo i psixomotornogo razvitiya perenoshennykh novorojdennykh i detey //Predstavleny materialy vrachey razlichnykh spetsialnostey Pridnestrovskoy Moldavskoy respubliki, Moldovy, Ukrainy, Rossii isotrudnikov meditsinskogo fakulteta Pridnestrovskogo gosudarstvennogo universiteta. Rassmotreny aktualnyye voprosy xirurgii. 2020;56-58.
4. Bozaripov S.J. i dr. Novyy sposob modelirovaniya xronicheskoy pochechnoy nedostatochnosti na fone diabeticheskoy nefropatii //European research: innovation in science, education and technology. 2018;120-122.
5. Bozaripov S.J. i dr. Patofiziologicheskie preobrazovaniya v endotelialnoy sisteme pri nefropatiyax razlichnogo geneza //European research: innovation in science, education and technology. 2018;122-125.
6. Kasalliklarning xalqaro tasnifi X-ko'rib chiqilgan. JSST, 1993.

7. Muminov Sh.K., Ermatov N.J. Osobennosti metabolizma u bolnyx IBS v aspekte kontrast-indutsirovannoy nefropatii //European research: innovation in science, education and technology.2018;60-6
8. Rustamov B.B., Ermatov N.J. Pishhevaya sennost krasnogo palmovogo masla // Meditsinskie novosti. 2016;12(267):65-67.
9. Sagdullaeva M., Ermatov N., Bobomuratov T. Muddatida o'tib tug'ilgan bolalar kasallanishini gigienik tahlili. 2022.
10. Sagdullaeva M., Ermatov N., Bobomurodov T. Muddatida o'tib tug'ilgan bolalar onalari orasida kasallanishning gigienik tahlili: Dis. 2022.
11. Sagdullaeva M., Ermatov N., Bobomurodov T. Muddatida o'tib tug'ilgan bolalar onalar orasida kasallanishning gigienik tahlili : Dis. 2022
12. Tashkenbaeva U.A., Ermatov N.J., Abdujabbarov T.K. Patogeneticheskie mexanizmy razvitiya xronicheskoy krapivnitsy. /M. 2020.
13. Shmatova Yu.E. Zdorovaya mama–zdorovye deti // Rossiya: tendensii i perspektivy razvitiya. 2022;17(1):1002-1007.
14. Shokirova Sh.A., Ulmasova S.A., Shovxiddinova A.Sh. Svyaz amnioticheskogo indeksa s riskom razvitiya distressa ploda pri neoslojnyennyyx beremennostyax na sroках bolee 40 nedel // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2022;2(Special Issue 3):68-70.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.
16. Ermatov N.J., Bobomuratov T.A., Sagdullaeva M.A. Prolonged newborns and prolong pregnancy: A modern view on the problem // International Journal of Health and Medical Sciences. 2022;5(1):26-30.